

## DARSDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRADIGAN USULLAR

*Buxoro shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchilari*

**Raxmatova Nafosat Jumayevna**

**Muhamedova Munira Ramazonovna**

**Annotatsiya:** *Darsda o'quvchilar faolligini oshirishda foydalaniladigan usullar, metodlar keng ochib berildi. Sinkveyn" usuli, "Davom ettir o'yini" usuli, "Kichik guruhlarda ishlash" usuli keng yoritildi.*

**Kalit so'zlar:** *metod, oddiy usul, kubik o'yin, tarqatma, sport-loto o'yini, kichik guruh.*

### TALABALAR BILIMINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH METODLARI

Interfaol usullar - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

O'qitishning bu usullarini dars maqsadidan kelib chiqqan holda tanlash kerak. Qaysi usulda maqsadga erishish imkoniyati ko'proq bo'lsa, darsni shu usuldan foydalangan holda tashkil etish kerak.

Quyida matematika fanini o'qitishda tavsfiya etiladigan ba'zi interfaol usullardan misollar keltiramiz.

### "KICHIK GURUHLARDA ISHLASH" USULI

Bu usulni qo'llash o'qituvchidan mohirlik talab qilinadi. Bu usul butun dars davomida yoki darsning bir qismida qo'llanishi mumkin. Sinf o'quvchilari o'z xohishlari bo'yicha 4-6 nafarlik guruhlariga ajratiladi. Negaki, bir guruhda bir-biri bilan xarakterlari to'g'ri kelmaydigan o'quvchilar bo'lmasligi kerak. Har bir guruhning bilim saviyasiga qarab savollar, mavzular, misol va masalalar o'qituvchi tomonidan tanlanadi va tarqatiladi.

O'quvchilar o'z savollariga o'zaro hamjihatlikda javob izlaydilar. Bunda o'quvchilardan quyidagilar talab qilinadi.

- 1) guruhdagi sinfdoshingni diqqat bilan tingla, uning fikrlarini tushunishga harakat qil,
- 2) agar tushunmasang, yana so'ra,
- 3) o'z fikringni qisqa va tushunarli qilib bayon qilishga o'rgan,
- 4) guruhdagi sinfdoshingning fikriga qo'shilmasang, sababini asosla,
- 5) agar sinfdoshlaring sening fikringa qo'shilmasa, sababini aniqla,
- 6) agar fikringni xatoligi isbotlashsa, xatoyingni tan ol,

7) masalaning yechimi uchun hamma birday masul ekanligini unutma.

O'qituvchi o'quvchilarning to'g'ri javoblarni topishni o'yin davomida nazorat qilib boradi. Masalaning to'g'ri yechimini topgan guruh sardori, uni sinf doskasida barchaga yechib ko'rsatadi. Qaysi guruh masalani yecha olmagan bo'lsa "bo'sh" guruh deb e'lon qilinadi va boshqa guruhlardan ushbu masalani yechish talab qilinadi. Qaysi guruh barcha masalalarni to'g'ri yechsa, bu guruh "a'lochi" guruh deb rag'batlantiriladi va darsni reja asosida davom ettiriladi

"Sinkveyn" usuli ( 5-10 minut)

Sinkveyn - frantsuzcha so'z bo'lib , "beshlik" degan manoni anglatadi.

Bu usulni qo'llashda bir savolga beshta mantiqan to'g'ri , sinonim javob yozish talab qilinadi . Javoblarni yozganda , birinchi qatorga - bir so'zli, ikkincha qatorga ikki so'zli , uchunchi qatorga - uch so'zli , to'rtinchi qatorga to'rt so'zli va beshinchi qatorga yakuniy to'g'ri fikr yoziladi.

### MASALAN

1. Funktsiya
2. To'plamlarni akslantirish
3. To'plamni to'plamga akslantirish
4. To'plamlarni bir qiymatli akslantirish
5. Matematik tushuncha

Bu usul matematikada kam qo'llaniladi.

"Charxpalak " usuli (10-20 minut)

Ushbu usul ko'pincha o'quvchilar bilimni baholash, bo'shliqlarni aniqlash maqsadida fanning bir bo'limi tugagandan so'ng o'tkaziladi . O'quvchilarni guruhlarga bo'lib yoki yakka - tartibda topshiriqlar berish mumkin.

O'qituvchi tarqatma materiallarni guruhlar ( o'quvchilar)ga tarqatadi . Tarqatma materiallarda 10 va undan ortiq savollar va ularning 4 tadan javoblari beriladi. ( test shaklida yoki boshqa ko'rinishda) . Guruh( o'quvchi) tarqatma materiallarning o'ng burchagiga o'z guruhi raqamini qora kalam bilan yozib , tug'ri javoblarni qora kalam bilan belgilaydi . Barcha savollarga javob tayyor guruhlar (o'quvchilar )o'zlari tug'ri deb xisoblagan javoblarni qizil kalamda belgilab , yana keyingi guruhga (o'quvchiga )uzatadi . Shu tariqa o'z guruhining topshirig'i o'ziga qaytib keladi. Shu asosida guruh (o'quvchi ) o'zining xatolarini ko'rib oladi. Bu davrda o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini tekshirib boradi . Barcha guruhlar (o'quvchilar ) vazifalarini bajarib bo'lgach , har bir guruh (o'quvchi ) ning topshiriqni bajarish foizi aniqlanadi va reyting asosida baho qo'yiladi . Masalan , 10 ta topshiriq berilgan bo'lsa , 6 ta to'g'ri javobga ( 55% dan yuqori ) 3 baho, 8 ta javobga (70% dan yuqori ) 4 baho , 9-10 ta to'g'ri javobga ( 85 % dan yuqori ) 5 baho qo'yiladi. Dars reja asosida davom ettiriladi

"Davom ettir" o'yini

1 o'quvchi matematik termin aytadi, 2 o'quvchi uning oxirgi harfiga boshqa 1 matematik termin aytadi. O'yin o'quvchilar soni tugaguncha davom etadi.

Masalan: aylana-ayqash-shar-romb-besh-shart-to'rt-teng-gramm-misol-metr-Rene-ellik-kub-binar-riyoziyot-tonna-al-Xorazmiy-yo'l-lyambda-arifmetika-algebra-aksioma-algoritm-manfiy-va hokazo.

Son qatnashgan maqollar aytishuvi

### MAQSAD

Son qatnashgan maqollar orqali O'zbek xalq maqollari degan boy merosimizdan foydalangan holda o'quvchilarni milliy g'urur, axloqiy his tuyg'ularni hakllantirish, ma'naviy tuyg'ularini rivojlantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, Vatan va Vatanga muhabbat tushunchalarini o'quvchilar ongiga sindirish. ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish va sonning dunyodagi roli haqida tushuncha berib, ko'nikma va malaka hosil qilish.

Har bir o'quvchi kamida 10 ta son qatnashgan maqol aytishi kerak. Aytish tartibi: navbatma navbat, bitta bittadan maqol aytiladi. 10 tadan kam maqol aytgan o'quvch o'yinni tark etadi.

Masalan: 1. 2 quloqdan ko'ra, 1 ko'zga ko'proq ishon.

1. yolg'iz aql o'zi yaxshi, 2 bo'lsa, yana yaxshi.
2. Qars 2 qo'ldan chiqar, qizg'anch-yo'ldan.
3. 1 bolaga 7 mahalla ota-ona.
4. 1 boshga 1 o'lim.
5. 100 qayg'u 1 ishni bitirmas.
6. O'q 1 ni o'ldirar, so'z 1000 ni.
7. 1 kozi ko'r, haybati zo'r.
8. 3 kishi 1 bo'lsa, biri xizir.
9. 1ni kessang 10 ni ek.
10. Hikmat bir hovuch oltin.
11. Do'st 1000 bo'lsa ham oz, dushman 1 bo'lsa ham ko'p
12. 1 kalla kalla, 2 kalla tilla
13. 1 ni birov beradi, ko'pni mehnat.
14. 1 kishi ariq qazar, 1000 kishi suv ichar.
15. 1 kun tuz totgan joydan 40 kun salom ber.

Yangi pedagogik texnologiyalar mustaqil fikrlashni o'rgatadi, sodda, oson, o'quvchini izlanishga chorlaydi va dars jarayoni qiziqarli o'tadi.

Ushbu pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta’limi j. 1999. № 5
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
3. Tolipov O’. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”. 2005. 4. Sherqulov. M . Ma’ruza matni dan, Toshkent: 2012